



**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI
SHAXSGA YO'NALTIRIB O'QITISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI.**

Botirov D.B.¹ Majidov J.M.² Murodov F.³

¹Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent

²Jizzax davlat pedagogika universiteti, katta o'qituvchi

³Jizzax davlat pedagogika universiteti, magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7330449>

Hozirgi ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Dunyoda axborot texnologiyalari va mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda, shuningdek, o'rganilgan statistic ma'lumotlarga qaraganda eng samarali iqtisodiy va zamonaviy soha kasblar reytingida axborot texnologiyalari mutaxassisliklari yetakchilik qilib kelmoqda. Sunday ekan ushbu sohada ya'ni axborot texnologiyalari ta'limda, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jamiyatimizning har bir bo'lajak kadri uchun intellektual salohiyatni shakllantirish hamda uni aniqlash uchun uslub amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.[4]

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalarini o'qitishda o'quvchilarning intellectual salohiyatini shakllantirish muammosini hal qilish uchun avvalo kompetensiyalarni yaxshi anglab olish lozim. Shuning uchun ham umumiy o'rtga ta'lim muassasalarida Informatika va axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalarni keltiramiz.





TA'LIMDA KOMPTENSIYA

Informatika va axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalar





- atrofdagi olam bilan bog'liq bo'lgan ma'lumot va axborotning ahamiyatini tushinish;
- algoritmik fikirlash va algoritmlarning tasvirlash shakllari, ko'rinishini, o'rganish uchun tanlangan algoritmik tilda yozilgan dasturni tushinish;
- dasturlashning asosiy tushunchalaridan foydalangan holda ana'anaviy va noana'naviy masalalarni tuza olish;
- shaxsiy, ijtimoiy hayotiy va kasbiy faoliyatida axborot, axborot tizimlari va texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- kundalik faoliyatda kompyuter, multimediyaviy vositalari, amaliy dasturlar va elektron tarmoqlar imkoniyatlaridan to'g'ri, xavfsiz va ununli foydalanish;
- kerakli axborotlarni qidirib topish, tanqidiy tahlil qilish, qayta ishlash, foydalanish va uzatishda axborot xavfsizligi, etik me'yorlarga rioya qilish;
- turli formadagi ma'lumotlar uchun mo'ljallangan dasturiy vositalar bilan ishlash, o'z g'oyalari va loihalarini o'rgangan formatida tasqdim eta oliush;
- ta'lim olish va hayotda duch kelgan turli vaziyatlarda muammoni aniqlab, uning yechiminji maqbul va muqobil usullardan foydalanib yecha olish;
- o'z faoliyati natijalarini baholash, olingan bilim, ko'nikma va malakalarini uning unumdorligini oshirishga safarbar qilish;
- Mavjud imkoniyat va resurslarini innovatsion faoliyatga yo'naltira olish, o'zi va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishga intilis
- globallashuv sharoitida axborot texnologiyalarining ijobiy imkoniyatlatining ahamiyati, salbiy oqibatlarini, turli tahlillari va ulardan himoyalanih yo'llarini bilish hamda amalda qo'llash;
- axborot va interfaol xizmatlar, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan o'zi va xaqq faravonligi yo'lida foydalanish.

Kognitiv kompetensiyalar

- ta'lim ilosh, shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatida o'z maqsadlarini to'g'ri belgilashda aniq fanlar bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni samarali qo'llash;
- mantiqiy to'g'ri va noto'g'ri mulohazalarni ajratadi, muammoning yechimini topishda maqbul qaror qabul qilosh;
- o'quv va amaliy masalaning matematik yechimini yoki xulosalarini hosil qilishda o'rganilgan matematik yechimlarni yoki xulosalarni hosil qilishda o'rganilgan matematik tushunchalarni, asoslarni, usullarni, fikr yuritishda mantiqiy qobiliyatini va vositalarni qo'llash;
- amaliy masalalarning algoritmik yechimi yoki dasturiy yechimdan olingan natijalar ustida fikr yuritadi, real muammo kontestida ularni talqin qilish;
- matematik yechimni real muammo kontekstiga ko'chiradi, olingan matematik yechim real muammo kontekstiga mos ekanligini bilish;
- mustaqil ravishda vaziyatning muammosini aniqlaydi, tahlil qiladi va uni yechishning maqbul yoki muqobil usullarini shakllantiradi hamda asoslash;
- o'z natijalarini tanqidiy baholaydi, natijalarni yaxshilashda mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanish;
- nazariy bilimlarni amaliyot bilan mantiqan bog'lab, jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-texnologik o'zgarishlarga mos ravishda qo'llash.



Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirish uchun muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun maktab o'quvchilariga Axborot texnologiyalarini ta'limda dasturlash texnologiyalarini bilish va bu bo'yicha intellektual salohiyatga ega bo'lish muhim hisoblanadi.

1. Algoritm deganda nima tushiniladi?
2. Algoritm ijrochisi deganda qanday ob'yekt tushunilishi mumkin?
3. Algoritm kimga mo'ljallab tuzilgan bo'lishi shart?
4. Algoritm qanday xossalarga ega?
5. Algoritmدا ko'rsatmalar qanday bo'ladi?
6. Algoritmni tushunarlik xossasi buziladigan holga misol keltiring.
7. Algoritmni cheklilik xossasi buziladigan holga misol keltiring.
8. Algoritmni natijaviylik xossasi buziladigan holga misol keltiring.
9. Algoritmni qanday tasvirlash usullari bor?
10.  blok qanday ko'rsatmani bildiradi?
11.  blok qanday ko'rsatmani bildiradi?
12.  blok qanday ko'rsatmani bildiradi?
13.  blok qanday ko'rsatmani bildiradi?
14. Algoritmning asosiy turlarini aytib bering.
15. $y=2a + bc$ hisoblanishi kerak bo'lsa, algoritm qaysi turga mansub bo'ladi?
16. $m[a..b]$ massiv elementlar soni a dan b gacha ishtirok etgan sonlarning sonini toping.
17. Agar massivda indekslar bitta bo'lsa necha o'lchamli bo'ladi?
18. Ma'lum vaqtda ketma-ket bajariladigan buyruqlar (ko'rsatmalar) ketma-ketligi qanday algoritm deb ataladi?
19. Arifmetik ifoda deb nimaga aytiladi?
20. Massiv indeksi turi qanday bo'ladi?

Yuqorida keltirilgan topshiriqlar asosida, o'quvchilarda dastlabki axborot texnologiyalari bo'yicha intellektual salohiyat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida shakllantiriladi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim muassasalarida har bir mavzu, bo'lim yoki choraklarda o'quvchilarga yuqorida keltirilgan intellektual salohiyatni shakllantirish topshiriqlarini o'qish va ta'til davrida uyga vazifa sifatida berish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, biz yoshlarning ertangi kunda erkin fikirlovchi, barkamol shaxs bo'lib shakllantirish uchun ularni maktab partasidanoq mustaqil ijodiy fikirlashga, intellektual fikirlashga yo'naltira borishimiz kerak. Buning uchun barcha ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarimizda ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha turli xil mashg'ulotlar tashkil qilinishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mo'minov B.B., Murodova Z.R. Interaktiv o'qitish usullarining dasturlarini tuzish va intellektual fikirlashga chorlash. Axborot ta'lim makonini takomillashtirishda axborot resurslari va texnologiyalari integratsiyasi. Respublika miqiyosidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Toshkent 2019.22-25 betlar.
2. Eshmurodova N. O'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish. Xalq ta'limi jurnali 2002 yil 2 son. 36-37 betlar.
3. Botirov D.B., Majidov J.M. Informatika o'qitish metodikasi fani bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etishning ayrim tomonlari. Axborot ta'lim makonini takomillashtirishda axborot resurslari va texnologiyalari integratsiyasi. Respublika miqiyosidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Toshkent 2019.164-165 betlar.
4. Mo'minov B.B., Murodova Z.R. Axborot texnologiyalari ta'limda intellektual salohiyatni shakllantirish. Axborot ta'lim makonini takomillashtirishda axborot resurslari va texnologiyalari integratsiyasi. Respublika miqiyosidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Toshkent 2019.72-77 betlar.
5. Mo'minov B.B., To'rayev. "Informatika va axborot texnologiyalari" sohasida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy komponentligini shakllantirish metodikasi. // O'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mabzusidagi ilmiy-amaliy anjuman.-Buxoro, 2015.- b235-238.

